

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI  
« MOLIYAVIY TAHLIL VA AUDIT » KAFEDRASI

*Qo'lyozma huquqida*  
UDK:658.1 336.1(575.1)

**RASHIDOV ZUHRIDDIN SANJAR O'G'LI**

**“BYUDJET BILAN HISOB-KITOB-LAR AUDITINI  
TAKOMILLASHTIRISH”**

**70410102 – Audit (Tarmoqlar va sohalar bo'yicha)  
mutaxassisligi bo'yicha**

**Magistr akademik darajasini olish uchun yozilgan**

**D I S S E R T A T S I Y A**

**Ilmiy rahbar:**  
**DSc., dots. Tojiboyeva Sh.A.**

**TOSHKENT–2023**

Magistrlik dissertatsiya ishi «Moliyaviy tahlil va audit» kafedrasida dastlabki himoyadan o'tgan.

12 -sonli bayonnoma «26» aprel 2023-y.

Kafedra mudiri:

DSc., prof.

Xajimuratov N.Sh.


  
imzo

23.05.2023-y.  
sana

Ilmiy rahbar:

DSc., dots.

Tojiboyeva Sh.A.

  
imzo

18.05.2023-y  
sana

Magistratura

talabasi:

Rashidov Z.S.

  
imzo

18.05.2023-y  
sana

Dissertatsiya «Moliya va buxgalteriya hisobi» fakultetida 2023-yil

«23» may da

№ MUA-01/12 raqami bilan ro'yxatga olindi.

## ANNOTATSIYA

Magistrlik dissertatsiya ishida korxonalarda byudjet bilan bog'liq hisob-kitoblar auditini tashkil qilish va o'tkazishni halqaro amaliyoti masalalari yoritilgan. Ishda byudjet bilan hisob-kitoblar auditini tashkil qilish, amalga oshirish jarayonida mavjud bo'lgan muammolar o'rganilgan, tahlil qilingan. Auditning xalqaro standartlari asosida byudjet bilan hisob-kitoblar auditini o'tkazish amaliyotini takomillashtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar berilgan. Tadqiqot natijalaridan foydalanish xo'jalik subyektlarida byudjet bilan hisob-kitoblar auditorlik tekshiruvini sifatini oshirish, ularning moliyaviy holati barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

*Kalit so'zlar:* Moliyaviy nazorat, davlat byudjeti, audit, tashqi audit, buxgalteriya xizmati, auditning xalqaro standartlari, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, soliqlar, byudjet bilan hisob-kitoblar, moliyaviy hisobotlar.

## ANNOTATION

The Master's dissertation covered the international practice of organizing and conducting audits of budget-related calculations in enterprises. In the work, the problems that exist in the process of organizing and implementing the audit of calculations with the budget were studied and analyzed. Based on the international standards of auditing, practical recommendations are given to improve the practice of conducting an audit of accounts with the budget. The use of the results of the research allows to improve the quality of the audit of budget calculations in economic entities, to ensure the stability of their financial situation.

*Key words:* Financial control, state budget, audit, external audit, accounting service, international standards of auditing, international standards of financial reporting, taxes, calculations with the budget, financial reports.

## MUNDARIJA

Annotatsiya .....	3
Mundarija .....	5
Keltirilgan jadvallar ro'yxati .....	6
Keltirilgan rasmlar ro'yxati.....	7
Keltirilgan qisqartmalar ro'yxati .....	8
<b>I BOB. KIRISH .....</b>	<b>9</b>
1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi .....	9
1.2. Tadqiqot maqsadi va vazifalari .....	11
1.3. Tadqiqotning asosiy muammolari va savollari .....	11
1.4. Tadqiqot obyekti va predmeti .....	12
1.5. Tadqiqot natijalarining ilmiy–nazariy va amaliy ahamiyati .....	12
1.6. Tadqiqotning tarkibiy tuzilmasi .....	13
<b>II BOB. ADABIYOTLAR SHARHI .....</b>	<b>14</b>
2.1. Ilmiy–nazariy adabiyotlar sharhi .....	14
2.2. Ilmiy–amaliy adabiyotlar sharhi .....	17
<b>III BOB. TADQIQOT METODOLOGIYASI .....</b>	<b>21</b>
3.1. Tadqiqotda qo'llanilgan usullar .....	21
3.2. Tadqiqotning ma'lumot manbalari .....	21
<b>IV BOB. TADQIQOT TAHLILI VA NATIJALARI .....</b>	<b>22</b>
4.1. Byudjet bilan hisob-kitoblar auditini tashkil etishning nazariy va tashkiliy asoslari.....	22
4.2. Auditning xalqaro standartlari asosida byudjet bilan hisob-kitoblar auditini tashkil qilishning amaliy masalalari.....	37
4.3. Auditning xalqaro standartlaridan foydalangan holda foyda solig'i auditini takomillashtirish yo'llari.....	67
<b>V BOB. XULOSA .....</b>	<b>75</b>
5.1. Tadqiqot savoliga tegishli natijalarning qisqacha ifodasi.....	75
5.2. Tadqiqot natijasida ishlab chiqilgan takliflar va tavsiyalar.....	75
5.3. Tadqiqot cheklovlari va kelgusi tadqiqotlar uchun takliflar.....	77
5.4. Tadqiqot natijalarining amaliyotga tegishliligi va natijalarning amaliy ahamiyati.....	77
<b>FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR .....</b>	<b>78</b>

## I BOB. KIRISH

### 1.1. Dissertatsiya mavzusining asoslanishi va uning dolzarbligi

Davlat byudjetidan ajratilayotgan mablag'lar asosan byudjet tashkilotlari zimmasiga yuklatilgan vazifa va ishlarni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan moliyaviy resurslar hisobiga amalga oshiriladi. Mamlakatimizda olib borilayotgan qurilish islohotlari, ta'lim va sog'liqni saqlash, tibbiyot sohasidagi olib borilayotgan ishlarni o'z vaqtida va sifatli bajarilishi byudjetga tushadigan mablag'larning ijro intizomini bajarish bilan belgilanadi. Shunday ekan xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan amalga oshiriladigan byudjet bilan bog'liq hisob-kitoblar o'z vaqtiga amalga oshirilishi uchun nazoratni kuchaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev (Sh.Mirziyoyev 2022) maruzalarida masalaning dolzarbligini alohida ta'kidlagan edilar: "Biz bu yil tariximizda ilk bor pensiya va ijtimoiy nafaqalar miqdorini minimal iste'mol xarajatlaridan kam bo'lmagan darajaga olib chiqdik. Misol uchun, 2017 yilda kam ta'minlangan 500 ming oila ijtimoiy yordam olgan bo'lsa, bugunga kelib 2 milliondan ortiq oilalarga ko'mak berilmoqda. Ajratilayotgan mablag'lar esa, 7 barobar ko'paytirilib, yiliga 11 trillion so'mga yetdi. Biz ish haqi, pensiya va nafaqalar miqdorini, aholi jon boshiga daromadlarni oshirish siyosatini izchil davom ettiramiz".

Mamlakatimizda byudjet bilan hisob-kitoblar mexanizmini takomillashtirish, va byudjetga tushadigan mablag'larni o'z vaqtida hamda to'liq tushishini ta'minlashning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda budjetdan ajratilayotgan mablag'larning maqsadli va samarali sarflanishini nazorat qilish muhimdir. Davlat moliyaviy nazoratini tashkil etishda keyingi yillarda mamlakatimizda salmoqli ishlar amalga oshirildi. Ammo budjetdan ajratilayotgan mablag'larning talon-taroj qilinishi, maqsadsiz ishlatilishi kabi holatlar hozirda ham tez-tez uchrab turibdi. Mazkur holatlarning oldini olish borasida davlat moliyaviy nazorati faoliyatini takomillashtirish, bu borada xorijiy davlatlar tajribalaridan keng foydalanish, sohada raqamli iqtisodiyot va innovatsion